



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AYOLLARNING ULUSHI

Ilmiy rahbar: Samatov Xurshid Ulmasjonovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali ''Gumanitar va ijtimoiy fanlar'' kafedrasi mudiri

Jabborov Abdulla Akbar o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali TTKT fakulteti RI 23-10 guruh talabasi

Elektron pochta manzili:abdullajabborov3@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada xizmat ko'rsatish sohasida ayollarning ulushi, xususan transport, ta'lif, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalaridagi roli muhokama qilinadi. Har bir sohada ayollarning ishtiroki jamiyat va iqtisodiyotni rivojlanirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ayollar transport tizimlarida, ta'lif jarayonlarida, qishloq xo'jaligida va sanoatda yangiliklar kiritish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda faol rol o'ynashi va ulardagi ulushi bat afsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif sohasida ayollar, qishloq xo'jaligi sohasida ayollar, sanoat sohasida ayollar, gender tenglik, iqtisodiy rivojlanish, ulush.

Abstract: The article discusses the share of women in the service sector, particularly their role in transport, education, agriculture, and industry. Women's participation in each of these sectors is of great importance for the development of society and the economy. This article details how women play an active role in introducing innovations and ensuring sustainable development in transport systems, educational processes, agriculture, and industry, and their contribution to these fields.



Keywords: women in education, women in agriculture, women in industry, gender equality, economic development, contribution.

Аннотация: В статье рассматривается доля женщин в сфере услуг, в частности их роль в транспорте, образовании, сельском хозяйстве и промышленности. Участие женщин в каждой из этих сфер имеет важное значение для развития общества и экономики. В данной статье подробно описывается, как женщины играют активную роль во внедрении инноваций и обеспечении устойчивого развития в транспортных системах, образовательных процессах, сельском хозяйстве и промышленности, а также их вклад в эти области.

Ключевые слова: женщины в образовании, женщины в сельском хозяйстве, женщины в промышленности, гендерное равенство, экономическое развитие, вклад.

Xizmat ko'rsatish sohasi zamonamizning eng dinamik va muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha global iqtisodiyotda muhim rol o'yнaydi, shuningdek, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida, xususan, turizm, restoran, sog'lqn ni saqlash va ta'lim kabi sohalarda katta ahamiyatga ega. Xizmat ko'rsatish sohasida ayollar ulushi, ayniqsa, e'tiborga molik masala hisoblanadi, chunki bu soha ko'p jihatdan ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi o'rnnini belgilaydi.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida ayollar ulushi, nafaqat ishchi kuchi sifatida, balki boshqaruvchi va rahbarlar sifatida ham sezilarli o'rin tutmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ko'plab xizmat ko'rsatish tashkilotlarida ayollar ishchilarning 50% dan ortig'ini tashkil etadi. Ularning ishtiroki, nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, balki xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga ham yordam beradi. Ayollar, o'zlarining mulohazali va empatik yondoshuvlari orqali, mijozlar



bilan yanada yaxshiroq munosabat o'rnatish imkoniyatiga ega, bu esa xizmat sifatini oshiradi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, xizmat ko'rsatish sohasida kam xarajat bilan tez muddatda biznesni yo'lga qo'yish, daromadlarining real o'sishini ta'minlash hamda yangi ish o'rinalarini boshqa tarmoqlarga nisbatan ko'proq tashkil etish mumkin.

Yangi O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish bosqichida xizmatlar sohasini jadal



rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsada, YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 44,1 % dan 47,1 % ga oshganini ko'rishimiz mumkin. YAIMning boshqa tarmoqariga nazar tashlaydigan bo'lsak, jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 20,9 % dan 20,1 % ga, sanoatning



ulushi 28,0 % dan 26,3 % ga, qurilish tarmog‘ining ulushi 7,0 % dan 6,5 % ga kamaydi.

Ushbu o'rinda yuqoridagi sohalarda faoliyat yurituvchi ayollar ulushi quyidagichadir:

Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliv ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.Qishloq xo‘jaligi sohasida 45,5 foiz, sanoatda 38,5 foiz, qurilish sohasida 8 foiz xotin-qizlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Avvalambor, ta’kidlash joizki, ayollar va erkaklar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mehnat qilishadi. Ish bilan bandlikning tarmoqlar tuzilmasidagi farqi, birinchi navbatda, budget sohasida mashg‘ul bo‘lgan ayollarning solishtirma soni erkaklarga qaraganda sezilarli darajada yuqori ekanligida namoyon bo‘lmoqda (ishlayotgan ayollarning har uchinchisi, erkaklarning esa faqat 12% i bu yerda ish bilan band), ikkinchidan, qurilish, transport va aloqa kabi tarmoqlarda ishlayotgan erkaklar ulushi ularda mehnat qilayotgan ayollarning sonidan ko‘p: birinchi holatda farq 12,4% ni, ikkinchisida –6,3% ni tashkil qiladi. Undan tashqari, qishloq va

ХИЗМАТЛАР СОҲАСИНИ АСОСИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ






o‘rmon xo‘jaligi ikkala jins vakillarining ham eng keng tarqalgan bandlik sohasi hisoblansa-da, bu yerda ayollarning deyarli 30% i mehnat qiladi, bu vaqtida esa erkaklarning 22,5% i mazkur tarmoqda ishlamoqda.

Iqtisodiy tarmoqlarda xizmatlar sohasining o‘sish sur’ati yuqori bo‘lganligi sababli, ushbu sohadagi o‘zgarishlar hamda rivojlanishlar kelgusida ham yanada o‘sishi prognoz qilinmoqda.

Xizmatlar sohasi o‘sish tendensiyasi-davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlardan oqilona foydalanish bilan birligida, sohaga keng qamrovda tadbirkorlarni jalb qilish va bu orqali aholi bandligini ta’minlash kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar yotadi.

Shuningdek, xizmatlar sohasida **moliya, aloqa** va **axborotlashtirish, ta’lim va transport** xizmatlaridagi o‘zgarishlar boshqa turdagи xizmatlarga nisbatan yuqori o‘sish bo‘yicha natijalarni qayd etgan.Buni quyidagi diagramming orqali kuzatishimiz ham mumkin:

МОЛИЯВИЙ ХИЗМАТЛАР ҲАЖМИ





Jumladan, aloqa va axborotlashtirish xizmat ko'rsatish sohasida ishlovchi ayollar raqamli operatorda faoliyat yurituvchi barcha xodimlarning 36 foizini va yuqori rahbariyatning 40 foizini tashkil qiladi.

Bugungi kunda Transport vazirligi va uning tarkibiy bo'linmalarida ayollar va erkaklar uchun barcha mehnat sharoitlari yaratilgan, ular teng huquq va imkoniyatlardan foydalanmoqda. **Ishga qabul qilish, xodimlarni joylashtirish va teng mehnat sharoitlarini yaratish sohasida** Vazirlik ishga qabul qilishda erkaklar va ayollarning teng huquqlarini kafolatlaydi.

Transport sohasida jami 10168 nafar xodim mehnat qiladi, shundan 3597 nafari (35 foiz) ayollar, 6571 nafari (65 foiz) erkaklardir. Transport vazirligi markaziy apparatida jami 153 nafar xodim ishlaydi. Faoliyat yuritib kelayotgan ishchilarning 26 nafari (17 foizi) ayollar, 127 nafari (84 foizi) erkaklardir. Ayni paytda vazirlik markaziy apparati va tarkibiy bo'linmalarida 13 nafar xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatmoqda. .

Transport vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida xodimlarning ayrim toifalari uchun nazarda tutilgan qo'shimcha kafolatlar va imtiyozlar qo'llaniladi. Xususan, homilador ayollar va bolasi bor ayollarni ishga joylashtirish kafolatlari, ayollarga yillik ta'til, homiladorlik va tug'ish ta'tillari tartibini belgilashda beriladigan imtiyozlar, homilador va bolali ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish so'zsiz qo'llaniladi.

Respublikadagi jami band aholi sonining 41,2 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Bu 5,647,6 ming kishi demakdir. Ayollar shug'ullanadigan faoliyat turlari bo'yicha dominantlik quyidagicha:

1.
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 26,6 foiz;



2. T
a'lim - 16,3 foiz;
3. S
anoat - 13,6 foiz;
4. S
avdo - 12,9 foiz va boshqalar.

Yana bir qiziq jihat shundaki, ta'lif va sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritadigan jami xodimlarning 70 foizidan ortig'i ayollar hisoblanadi. 2022-yilda respublika bo'ylab maktabdan keyingi ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari tarkibida ayollar ulushi 46,5 foizni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich viloyatlar kesimida quyidagi ko'rinishda bo'ladi:





O‘zbekistonda xotin-qizlar ta’limi statistik jihatdan oqsaydi degan qarashni ilgari surib bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko'rsatish sohasida ayollarning ulushi har bir sohada muhim rol o'ynaydi. Transport, ta'lim, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida ayollar nafaqat ishchi kuchi sifatida, balki liderlik va innovatsiyalarni amalga oshirishda ham faol ishtirok etadilar. Ularning ishtiroki sohalar o'rta sidagi tenglikni ta'minlashga, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga va jamiyatni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ayollarning iqtisodiy faoliyatda yanada ko'proq ishtirok etishi, jamiyatda gender tengligini mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni oshirish uchun zarurdir. Shu sababli, xizmat ko'rsatish sohasida ayollarning ulushini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.** www.kokanduni.uz. “O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI IJTIMOIY HAYOTIDA AYOLLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH MASALALARI”.3-b.
- 2.** Bibisara Abibullayevna Erejepova.” XIZMAT KO’RSATISH SOHASI VA AYOLLAR BANDLIGI” Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385.2-b.
- 3.** <https://daryo.uz/2023/09/28/respublikamizda-xizmatlar-sohasijadal-rivojlanmoqda>
- 4.** <https://www.mintrans.uz/gender-malumotlar>
- 5.** <https://factchecknet.uz/2024/01/19/ayollar-va-talim-raqamlar-sozlaganda/>